



UDK: 911.3:338.45(575.43)

**Maqsud FAYZULLAYEV,**  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, g.f.d  
E-mail: fayzullayevmaqsud08@gmail.com  
<https://orcid.org/0009-0006-2689-1659>  
**Gulnovo ABDIHOLOVA,**  
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: abdiholiqovgulnavruz@gmail.com  
<https://orcid.org/0009-0006-8996-2602>

O'zbekiston Milliy universiteti professori, g.f.d. N.Komilova taqrizi asosida

#### QASHQADARYO VILOYATI SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etish, ularning rivojlanish dinamikasi hamda istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash masalalari iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotda mintaqaning tabiiy resurs salohiyati, transport-geografik joylashuvi, mehnat resurslari va investitsion muhitining sanoat rivojiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Sanoat ishlab chiqarishida neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlarining o'rni hamda ularni diversifikatsiyalashning zaruriyati ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat tarmoqlari, iqtisodiy geografiya, hududiy rivojlanish, resurs salohiyati, neft-gaz sanoati, kichik sanoat zonarlari, innovatsion ishlab chiqarish, ekologik barqarorlik, investitsion muhit, diversifikatsiya.

#### PROMISING DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL SECTORS IN KASHKADARYA REGION

Annotation

This article analyzes, from an economic-geographical perspective, the issues of territorial organization, development dynamics, and prospective directions of industrial sectors in the Qashqadaryo region. The study scientifically substantiates the impact of the region's natural resource potential, transport-geographical location, labor resources, and investment environment on industrial development. The role of the oil and gas, chemical, construction materials, food, and light industries in industrial production, as well as the necessity of their diversification, is highlighted.

**Keywords:** industrial sectors, economic geography, regional development, resource potential, oil and gas industry, small industrial zones, innovative production, environmental sustainability, investment climate, diversification.

#### ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье с экономико-географической точки зрения проанализированы вопросы территориальной организации промышленных отраслей Кашкадарьинской области, динамика их развития и перспективные направления. В исследовании научно обосновано влияние природно-ресурсного потенциала региона, транспортно-географического положения, трудовых ресурсов и инвестиционной среды на развитие промышленности. Отмечено значение нефтегазовой, химической, строительной, пищевой и лёгкой промышленности в структуре промышленного производства, а также необходимость их диверсификации.

**Ключевые слова:** отрасли промышленности, экономическая география, региональное развитие, ресурсный потенциал, нефтегазовая промышленность, малые промышленные зоны, инновационное производство, экологическая устойчивость, инвестиционный климат, диверсификация.

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv sharoitida sanoat tarmoqlarining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishi jahon iqtisodiy geografiasining eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi davrda sanoat ishlab chiqarish faqat iqtisodiy o'sishning asosi emas, balki hududlarning innovatsion salohiyatini belgilovchi, mehnat resurslarini samarali taqsimlovchi hamda hududiy iqtisodiy tizimlarning integratsiyasini ta'minlovchi omil sifatida qaralmoqda. Jahon miqyosida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va sanoat infratuzilmasini hududiy jihatdan muvozanatlashtirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda [10].

O'zbekiston Respublikasida esa sanoat tarmoqlarining rivojlanishini ilmiy asosda boshqarish va ularni hududiy jihatdan oqilona tashkil etish mustaqillikdan keyingi islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Shuningdek, kichik sanoat zonarlari va klaster tizimlarini shakllantirish, investitsion muhitni yaxshilash, hududlararo tafovutlarni kamaytirish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi [7]. Qashqadaryo viloyati misolida sanoat tarmoqlarining istiqbolli yo'nalishlarini o'rganish iqtisodiy geografik jihatdan alohida dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birga, viloyatning transport-geografik joylashuvi, mehnat resurslari salohiyati va energetik infratuzilmasi sanoat ishlab chiqarishning hududiy rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi [1, 8]. Biroq mavjud ishlab chiqarish tizimida tarmoqlararo nomutanosiblik, texnologik eskirish, ishlab chiqarish hajmining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi va ekologik bosimning kuchayishi kabi muammolar mavjud. Shu bois, Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarini ilmiy asosda diversifikatsiyalash, zamonaviy

texnologiyalar asosida modernizatsiyalash va ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimini shakllantirish istiqbollari iqtisodiy geografiya fanining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Muhokama.** Qashqadaryo viloyati sanoatining hududiy rivojlanish tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqaning tabiiy resurs salohiyati, transport-geografik joylashuvi va mehnat resurslari viloyat sanoatini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, tumanlararo sanoat ixtisoslashuvi darajasidagi tafovutlar, infratuzilma nomutanosibliklari va texnologik yangilanish sur'atlarining farqlanishi iqtisodiy makonning muvozanatsiz rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Qarshi, Muborak va Nishon tumanlari resurs va energetik markazlar sifatida jadal rivojlanayotgan bir paytda, tog'li va chekka hududlarda (Dehqonobod, Qamashi, Ko'kdala) ishlab chiqarish salohiyati to'liq ro'yobga chiqmayapti. Bu holat viloyatning iqtisodiy geografik strukturasi ichida tarmoqlararo va hududlararo nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda [2, 5]. Shu sababli, mavjud sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalash, resursga yaqin joylarda chuqur qayta ishlovchi korxonalarni tashkil etish va transport-logistika infratuzilmasini kuchaytirish iqtisodiy barqarorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Natijalar.** Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarining shakllanishida tabiiy-geografik, iqtisodiy, demografik va transport-logistik omillar kompleks tarzda ta'sir ko'rsatadi. Viloyat O'zbekiston janubida, mamlakatning muhim strategik iqtisodiy mintaqasida joylashgan bo'lib, uning neft-gaz konlari, foydali qazilmalari, qurilish materiallari xomashyo bazasi va mehnat resurslari yuqori salohiyatga ega. Ayniqsa, Muborak, Nishon va Mirishkor tumanlaridagi yirik uglevodorod konlari respublikaning yoqilg'i-energetika majmuasida alohida o'rin tutadi [3, 6]. Bu esa nafaqat energetik xavfsizlikni ta'minlash, balki kimyo va qayta ishlash tarmoqlarini shakllantirish uchun ham asos yaratmoqda. Shuningdek, viloyat hududi tekis va yarim cho'l relyefiga ega bo'lib, bu omil sanoat korxonalarini joylashtirish va infratuzilmani rivojlantirish uchun qulay geosamarador sharoitni vujudga keltiradi. Transport tarmoqlarining, xususan, temir yo'l va avtomobil magistrallarining mavjudligi ishlab chiqarish resurslari va tayyor mahsulotlarni mamlakatning boshqa iqtisodiy markazlariga tez yetkazib berish imkonini beradi [9, 11].

Qashqadaryo viloyati tumanlarida sanoat tarmoqlarining shakllanishi va ixtisoslashuv darajasi iqtisodiy-geografik sharoitlar, tabiiy resurs bazasi, transport-kommunikatsiya imkoniyatlari, demografik omillar hamda ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, ularni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin.

**Birinchi guruh** – yirik sanoat markazlari va energetik bazalarga ega hududlar bo'lib, ularga Qarshi shahri, G'uzor, Muborak va Nishon tumanlari kiradi. Ushbu hududlarda sanoat tarmoqlari, xususan yoqilg'i-energetika, kimyo, neft-gaz, mashinasozlik, metallurgiya va qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlari keng rivojlangan. Ularning shakllanishiga tabiiy resurslarning ko'pligi (gaz, neft), transport-kommunikatsiya tugunlari, mehnat resurslarining yuqoriligi hamda energetik infratuzilmaning rivojlanganligi asosiy omil sifatida ta'sir etmoqda.

1-jadval.

Qashqadaryo viloyati tumanlarida sanoat ixtisoslashuvi va shakllanish omillari

| Tuman / shahar    | Asosiy ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari                                                                                                                                            | Sanoat tarmoqlarini shakllantiruvchi iqtisodiy geografik omillar                                                                                                                                                                                        |
|-------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qarshi shahri     | Qora metallurgiya, yoqilg'i, mashinasozlik, qurilish materiallari, oziq-ovqat, yengil sanoat, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz, kimyo, neft-kimyo va gaz-kimyo | Viloyat markazi sifatida transport-kommunikatsiya tuguni, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganligi, mehnat resurslari yuqoriligi, Qarshi magistral gaz quvurlari tizimining mavjudligi, hamda ichki iste'mol bozori hajmining katta bo'lishi |
| Shahrisabz shahri | Qora metallurgiya, mashinasozlik, qurilish materiallari, oziq-ovqat, yengil sanoat, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz, kimyo, neft-kimyo va gaz-kimyo           | Tog'li relyefda joylashganligi, tarixiy-shahar markazi sifatida xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan integratsiyasi, transport aloqalarining yaxshi rivojlanganligi, kichik biznes va hunarmandchilik asosida yengil sanoatning shakllanishi              |
| Qarshi            | Yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari, mashinasozlik, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz,                                                     | Qishloq xo'jalik xomashyosiga yaqinligi, Qarshi shahriga yaqin transport va ishlab chiqarish aloqalari, xomashyo bazasi (paxta, don, meva-sabzavot) mavjudligi                                                                                          |
| Muborak           | Yoqilg'i, mashinasozlik, yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo, neft-kimyo va gaz-kimyo, elektr energetika, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz, qurilish materiallari | Muborak gazni qayta ishlash zavodi va issiqlik elektr stansiyasi mavjudligi, tabiiy gaz konlari bilan bevosita bog'liqligi, energetik infratuzilmaning yuqori darajada rivojlanganligi                                                                  |
| G'uzor            | Yoqilg'i, Elektr energetika, kimyo, neft-kimyo va gaz-kimyo, qurilish materiallari, yengil sanoat, oziq-ovqat, mashinasozlik, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz | Neft va gaz konlari mavjudligi, Toshkent-Termiz magistral yo'lining o'tganligi, xomashyo va energiya resurslariga yaqinlik, transport-logistika imkoniyat-larining qulayligi                                                                            |
| Nishon            | Elektr energetika, yengil sanoat, qurilish materiallari, mashinasozlik, oziq-ovqat                                                                                                 | Eng yirik energetika markazi, Nishon IES faoliyati, gaz quvurlari va energetik tarmoqlarning markazlashuvi, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi uchun qulay imkoniyatlar                                                                           |
| Mirishkor         | Yengil sanoat, oziq-ovqat, qurilish materiallari                                                                                                                                   | Paxtachilik va g'allachilik rivojlangan agrar hudud sifatida xomashyo bazasining mavjudligi, mahalliy resurslardan foydalanish imkoniyati                                                                                                               |
| Shahrisabz        | Qurilish materiallari, oziq-ovqat, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz, elektr-energetika (GES), mashinasozlik                                                    | Tog'li relyef sharoiti tufayli GES imkoniyatlari, tog' jinslari va tabiiy toshlar bazasi, turistik xizmatlar bilan bog'liq ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishi                                                                                 |
| Yakkabog'         | Yengil sanoat, oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik                                                                                                                    | Paxtachilik, meva-sabzavotchilik va bog'dorchilik xomashyosi, Shahrisabz shahriga yaqin joylashuv, tog'li hududda kichik sanoat tarmoqlari rivojlanishi                                                                                                 |
| Kitob             | Yengil sanoat, oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik, kimyo, neft-kimyo va gaz-kimyo, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz                              | Tog' va daryo vodiylarida joylashganligi, mineral resurslar va tabiiy toshlar bazasining mavjudligi, transport yo'llarining rivojlanganligi                                                                                                             |
| Koson             | Yoqilg'i, yengil, oziq-ovqat, mashinasozlik, qurilish materiallari, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz                                                           | Qarshi-Koson sanoat o'qi doirasida joylashganligi, agrar xomashyo bazasi va transport qulayligi                                                                                                                                                         |
| Qamashi           | Yengil, oziq-ovqat, mashinasozlik, qurilish materiallari                                                                                                                           | Qishloq xo'jaligi xomashyosiga boy, viloyat markaziga yaqin, tabiiy qurilish materiallari (ohaktosh, qum-shag'al) mavjudligi, kichik sanoat korxonalarining rivojlanish salohiyati                                                                      |
| Dehqonobod        | Kimyo, neft-kimyo va gaz-kimyo, mashinasozlik, oziq-ovqat, qurilish materiallari                                                                                                   | Kaliy konlari asosida kimyo sanoati rivojlanishi, neft-gaz konlariga yaqinlik, xomashyo va energiya bazasining mustahkamligi                                                                                                                            |
| Chiroqchi         | Yengil, qurilish materiallari oziq-ovqat, mashinasozlik                                                                                                                            | Transport aloqalari, mehnat resurslarining ko'pligi, agrar sektor xomashyosi va viloyat markaziga yaqinlik                                                                                                                                              |
| Ko'kdala          | Yengil, qurilish materiallari oziq-ovqat, mashinasozlik                                                                                                                            | Asosan agrar xomashyo asosida shakllangan ishlab chiqarish, mahalliy mehnat resurslaridan foydalanish, tabiiy qurilish materiallariga yaqinlik                                                                                                          |
| Kasbi             | Yengil, oziq-ovqat                                                                                                                                                                 | Qishloq xo'jalik xomashyosiga tayanadigan ishlab chiqarish, kichik sanoat korxonalari uchun qulay demografik va transport-geografik joylashuv                                                                                                           |

Jadval mualliflarning ilmiy izlanishlari asosida shakllantirilgan.

**Ikkinchi guruh** – o'rta darajada rivojlangan va agrar-sanoat yo'nalishiga ixtisoslashgan tumanlardir. Ularga Qarshi, Kasbi, Kitob, Koson tumanlari kiradi. Bu hududlarda yengil sanoat, oziq-ovqat, qurilish materiallari tarmoqlari yetakchilik qiladi. Ularning shakllanishida qishloq xo'jaligi xomashyosi (paxta, meva-sabzavot, don, chorvachilik mahsulotlari) asosiy omil bo'lib

xizmat qilmoqda. Ushbu tumanlar asosan agrar xomashyo bazasi bilan ta'minlangan, ammo energiya va transport tarmoqlariga nisbatan ikkilamchi joylashuvga ega bo'lib, sanoat korxonalari kichik va o'rta miqyosdagi ishlab chiqarish shaklida faoliyat yuritadi.

**Uchinchi guruh** – tabiiy resurslar va relyef omillari asosida shakllangan tog'li va tog' oldi sanoat hududlari bo'lib, ularga Shahrisabz shahri, Shahrisabz tumani, Yakkabog', Chiroqchi, Qamashi, Mirishkor, Muborak, Dehqonobod va Ko'kdala tumanlari kiradi. Bu hududlarda sanoatning rivojlanishiga tog' jinslari, mineral resurslar, GES salohiyati, yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari va kimyo sanoati tarmoqlari sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Dehqonobodagi kaliy konlari mintaqada kimyo sanoatining shakllanishiga asos yaratgan. Shu bilan birga, bu hududlarda turizm bilan integratsiyalashgan kichik ishlab chiqarish subyektlari, xususan hunarmandchilik, yog'ochni qayta ishlash va oziq-ovqat sanoati yo'nalishlari o'sib bormoqda.

**Xulosa.** Umuman olganda, olib borilgan iqtisodiy geografik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyati O'zbekiston sanoat tizimida resurs va energetik salohiyat jihatidan eng ustuvor hududlardan biri hisoblanadi. Viloyat sanoatining hududiy tashkil etilishi tabiiy geografik, mehnat resurslari, transport-logistika va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan bevosita bog'liq holda shakllanmoqda. Qashqadaryo viloyati sanoatini uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlantirish uchun hududiy rejalashtirish va iqtisodiy geografik zonallashuvga asoslangan ilmiy-amaliy yondashuv talab etiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт. – Т: Камалак, 2013. – 184 б.
2. Abdiholiqova Gulnovruzkhon "Scientific-theoretical bases of regional location of industrial sectors" // International multidisciplinary journal for research & development. India, Volume 10, issue 12 (2023) Eissn 2394-6338 B. 443-446
3. Abdiholiqova G.A. (2024). Qashqadaryo viloyati sanoati rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlari // Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari 14-to 'plam 1-son, dekabr 2024. B. 257-265
4. Abdiholiqova G.A. (2025). Qashqadaryo viloyatida kichik sanoat zonalarini hududiy joylashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar // Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. 19-to'plam 1-son, may 2025. B. 290-295
5. Abdiholiqova G.A. (2025). Qashqadaryo viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etishning hududiy jihatlari // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №5(132) 2025 С. 7-13
6. Abdiholiqova G. A. Kimyo sanoati korxonalarining hududiy joylanishiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy geografik omillarni o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari // O'zbekiston zamini. Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. ISSN 2181-9955. №1 – Toshkent, 2025. – B. 90-93.
7. Axmedova N.F. Qashqadaryo viloyatida oziq ovqat sanoati rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlari. Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar mavzusidagi 79-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi materiallari to'plami 1-may, 2025-yil 79-son.
8. I. S. Bekmurodova. Qashqadaryo mintaqasi iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish tendensiyalari va barqarorligi tahlili. Marketing jurnali. 2024-yil, dekabr. №10-son. Toshkent, 2024 yil. 64–72 b. (08.00.00; OAK yangi tahrir)
9. I.S.Bekmurodova. Qashqadaryo mintaqasini innovatsion rivojlantirishning hozirgi holati tahlili. Science and education in agriculture agrar-iqtisodiy, ilmiy amaliy jurnal. №10, 2024 October. Andijon, 2024 yil.95–96 b. (08.00.00; OAK yangi tahrir).
10. P. Krugman. Development, geography and economic theory // Cambridge, Massachus, London, England (1998) - p -131.
11. Mirzajonov, Sh.R. "O'zbekiston sanoati hududiy tashkiloti va rivojlanish strategiyasi." Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar Jurnal, 2022.